

KORONAR ARTERIYA KASALLIGI

<https://doi.org/10.2591/zenodo.18452997>

Isakov Shaxriyorbek

Qo`qon universiteti Andijon filiali

DI 25-30-guruh talabasi

*Ilmiy raxbar:***Nazokat Nabijonova.**

Annotatsiya

Mazkur maqola dunyo tibbiyoti sohasida dolzarb masalalardan biri bo`lgan koronar arteriya kasalligiga bag`ishlangan bo`lib, unda kasallikning belgilari, tashxislash va davolash usullariga bag`ishlangan.

Kalit so`zlar

koronar arteriya, tashxislash, xolesterin, miokard ishemiyasi, veloergometriya, angiografiya, stent.

Abstract

This article is devoted to coronary artery disease, which is one of the most urgent issues in the field of world medicine.

Key words

coronary artery, diagnosis, cholesterol, myocardial ischemia, cycle ergometry, angiography, stent.

Аннотация

Данная статья посвящена ишемической болезни сердца, которая является одной из наиболее актуальных проблем в области мировой медицины.

Ключевые слова: коронарная артерия, диагностика, холестерин, ишемия миокарда, велоэргометрия, ангиография, стент.

Ma`lumki, zamon taraqqiy etishi bilan ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ulkan o`zgarishlar va imkoniyatlar paydo bo`ladi. Jumladan, tibbiyot sohasiga ham turli zamonaviy ilg`or texnologiyalarning krib kelishi va qo`llanilishi, bu soha vakillariga kasalliklarini aniqlash, oldini olish va davolash bo`yicha katta imkoniyatlar bermoq da. Ayniqsa, dunyo miqyosida keng tarqalgan va inson salomatligiga katyta havf solayotgan kasalliklarni aniqlash va davolash bo`yicha

keng qamrovli izlanishlar olib borilmoqda. Tanlangan mavzu ham ayni paytda jahon sogʻliqni saqlash xodimlari uchun eng keng tarqalgan kasalliklardan biri boʻlgan koronar (toj) arteriya kasalligi xususida boʻlib, koʻplab soha vakillari ushbu kasallikning kelib chiqish sabablari va davolash usullari boʻyicha koʻplab ilmiy izlanishlar ijobiy samara berayotgan boʻlsada, hali hamon bu kasallik turiga chalinayotgan bemorlar soni kamaymayapti.

Koronar arteriya kasalligi odatda qon bosimining koʻtarilishi hamda qon tarkibida xolesterinning ortishi natijasida kelib chiqishi aniqlangan boʻlib, uning asosiy sababchilari sifatida insonning tamaki mahsulotlarini chekishi, tananing ortiqcha semirib ketishi hamda kam harakatlilik eʼtirof etiladi. Ushbu kasallik qandli diabeti mavjud boʻlgan, ruxiy zoʻriqishi boʻlgan, qolaversa hozirgi paytda koʻp uchraydigan notogʻri ovqatlanishga odatlangan insonlar orasida koʻp uchrasini aniqlangan. Yuqorida keltirilgan belgilar yurak mushagiga koronar arteriyalar tomonidan yetkazib beriladigan kislarod va ozuqa moddalarning buzulishi sifatida eʼtirof etiladi yani ularning ichki devorlarida koʻp miqdorda yogʻlar xolesterin, kalsiy va turli hujayra qoldiqlari toʻplanishi natijasida, tabiiy ravishda qon tomirlarining torayishiga olib keladi. Bu esa inson yuragiga keladigon qon miqdorini kamayishiga olib keladi. Natijada esa, yurak mushagining kislarod yetishmovchiligi, yani miokard ishemiyasini keltirib chiqaradi.

Koronar arteriya kasalligining asosiy alomatlari: angina pektoris- koʻkrak sohasida siquvchi, bosuvchi ogʻriq. U jismoniy harakat, stress yoki sovuqda paydo boʻlib, ogʻriq chap qoʻl, boʻyin, jagʻ yoki orqaga tarqaladi. Nafas qisishi, yurak urishining tezlashishi, charchoq, holsizlik, kongil aynishi, ter bosishi ogʻir holatlarda miokard infarkti yani yurak mushagining bir qismi nobud boʻlishi mumkin. Ushbu kasallikni aniqlash uchun yuqori aniqlikdagi zamonaviy texnik vositalardan keng foydalanish yoʻlga qoyilgan masalan: yurak faoliyatida mavjud boʻlgan oʻzgarishlarni aniqlash uchun elektrokardiografiya vositasidan, jismoniy yuklamalar natijasidagi yurak soxasidagi oʻzgarishlarni veloergometriya yani stress- test vositasida, koronar arteriyalarning holatini koʻrsatish uchun esa eng aniq usullardan biri boʻlgan koronar angiografiya usulidan hamda qon tarkibidagi moddalar miqdorini aniqlash uchun esa turli xil qon taxlillari amalga oshiriladi.

Mazkur kasallik insonda aniqlangandan soʻng, asosiy masala uni davolash uchun zaruriy muolaja usullarini qoʻllashdan iborat boʻladi. Tibbiyotda ushbu kasallikni davolash uchun uning darajasi va belgilariga qarab tanlanishi tavsiya etiladi. Davolash jarayoni dori vositalari yoki jarroxlik usullari yordamida amalga oshirilishi mumkin. Koronar arteriya kasalligini dori vositalari yordamida davolash orqali: ogʻriqni kamaytirish, yurak urushuni bir maromga keltirish, qon bosimini

pasaytirish, qon tarkibidagi xolesterin miqdorini kamaytirish hamda qon quyqalarini oldini olishda yaxshi samara berishi aniqlangan. Jaxrxlik usulida yordamida esa bemorlardagi toraygan qon tomirlarini maxsus ballon yoki stent moslamalarini qo'llash hamda ayrim holatlarda yurakni yetarli miqdordagi qon bilan tanimlashni tiklash uchun boshqa qon tomirlardan yo'l ochish amaliyotidan samarali foydalanilmoqda.

Mutaxasislarning fikricha, ushbu kasallik inson hayoti uchun xavflilik darajasi yuqori bo'lganligi sababli uni davolashdan ko'ra, oldini olish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun esa, insondan ko'p narsa talab etilmaydi. Eng asosiysi o'z vaqtida va turli vitaminlarga boy meva va sabzavotlardan iborat bo'lgan sog'lom ovqatlanish tartibiga amal qilish, chekishdan voz kechish, jismoniy tarbiya bilan muntazam shug'ullanish, doimiy ravishda qon bosimi va shakar miqdorini nazorat qilib turishi va shifokor nazoratiga borib turish tavsiya etiladi.

Xulosa ornida shuni takidlash lozimki, koronar arteriya kasalligi inson yuragini doimiy, to'xtovsiz ishlashiga xalal beruvchi va ko'p xollarda to'xtab qolishiga olib keluvchi kasallik bo'lib, uni oz vaqtida aniqlash va davolash natijasida mutaxasis nazoratida bo'lishi talab etiladi. Chunki ushbu kasallik inson hayotiga havf solishi mumkin bo'lgan eng keng tarqalgan kasalliklardan hisoblanadi. Agar har bir inson hayoti davomida sog'lom turmush tarziga amal qilsa va oz vaqtida shifokor tekshiruvlariga borib tursa bu kasallikni oldini olgan bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- M.I.Hasanov, R.M.G'ulomov "Yurak-qon tomir tizimi kasalliklari,, Toshkent 2020.
- Sh.Sh.Rasulov, A.A.Abdullayev "Ichki kasalliklar propedevtikasi,, Toshkent 2021.
- O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi "Kardiologiya asoslari,, o'quv qo'llanmasi Toshkent 2022.
- A.A.Qodirov "Odam anatomiyasi,,.